

Korrupsiyaga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning o'rni beqiyos.

Bugungi global texnologik rivojlanish davrida korrupsiyaga qarshi kurash – bu davlat va jamiyat oldidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, bunda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning o'rni juda katta. Raqamli texnologiyalar vazirligi korrupsiya holatlarini oldini olish va davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash maqsadida bir qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Shu bois, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Davlat rahbarining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6257-sonli Farmoni va 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5177-sonli qaroriga asosan Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini mustahkamlash, xususan, korrupsiyaning oldini olish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha bir qator muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, shaffoflikni oshirish maqsadida Elektron hukumat tizimlari orqali barcha jarayonlar ochiq va kuzatuvchan bo'ldi, insonga bog'liqlik kamaytirilmoqda, Davlat xizmatlari hamda davlat organlarining jarayonlari raqamlashtirilishi natijasida inson omili kamayib, korrupsiyaga moyil harakatlarning oldi olinmoqda, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida korrupsiyaviy holatlarni oldindan aniqlash, oldini olish va nazorat qilish kuchaytirilmoqda.

Barchamizga ma'lumki, 2024-yil 6-iyunda “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi 931-sonli Qonun qabul qilindi va shu yilning 6-dekabr kunidan qonuniy kuchga kirdi. Mazkur Qonun talablari ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlik markaziy apparati va tizim tashkilotlarining barcha rahbar va ishchi xodimlari tomonidan deklaratsiya to'ldirilishiga erishildi.

Vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali korrupsiyani oldini olish, unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar muntazam ravishda keng yoritib kelinmoqda.

Vazirlik ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimi bo'yicha xalqaro sertifikatlariga ega bo'ldi, bu esa korrupsiyaga qarshi kurashishdagi sa'y-harakatlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, vazirlikning barcha departament, boshqarma, bo'lim rahbarlari va ularning o'rinbosarlari hamda boshqa mas'ul xodimlari Xalqaro ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi standartlari asosida o'qitildi.

Bundan tashqari, ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi vazirlik tizimidagi barcha tashkilotlarda bosqichma – bosqich joriy etilish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurashish bo‘yicha yuqorida sanab o‘tilgan ishlarning o‘zi yetarli bo‘lmaydi, albatta. Avvalambor, korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik hamda sohaning har bir xodimi o‘zidan boshlashi kerak. Har birimiz o‘z faoliyatimizga, ishimizga sof, halol va vijdonan yondashishimiz lozim. **Korrupsiya – bu eng kichik, ko‘zga ilinmas elementdan boshlanadi.** Bunda, xodim yoki har bir shaxs korrupsiyani bevosita o‘zi amalga oshirmasligi mumkin, lekin u atrofidagi hamkasbi yoki biror bir tanishi korrupsiya bilan shug‘ullanayotganiga guvoh bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Shunday ekan har bir holatga alohida e‘tibor qaratishimiz talab qilinadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish– bu faqat davlat emas, balki butun jamiyatning mas’uliyatidir.

***O‘zbekiston Respublikasi Raqamli
texnologiyalar vazirining o‘rinbosari R.O.Karimjonov***